



RAQAMLI BANKLAR FAOLIYATIDA RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

FACTORS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF THE RESOURCE BASE IN DIGITAL BANKING

¹Jumayev Muzaffar
Mahmud o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank ishi" kafedrası
katta o'qituvchisi. **ORCID:** 0009-0004-0329-7687

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada raqamli banklar faoliyatida resurs bazasi samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida "TBC Bank" va "ANOR BANK" misolida banklarning majburiyatlar, depozitlar va kredit portfeli tarkibi o'rganilib, resurs bazasining shakllanishi hamda undan foydalanish samaradorligi baholandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, bank resurs bazasining asosiy qismini depozit mablag'lari tashkil etib, ularning kredit operatsiyalariga yo'naltirilish darajasi yuqori. Shu bilan birga, kredit portfeli tarkibining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi resurs bazasi samaradorligini oshirishda muhim muammolardan biri ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida raqamli banklarda resurs bazasi samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Eng. - This article examines the issues of improving the efficiency of the resource base of digital banks. The study analyzes the structure of liabilities, deposits, and loan portfolios using the examples of TBC Bank and Anor Bank, and evaluates the efficiency of resource base formation and utilization. The results show that deposits constitute the main share of banks' resource base and are largely directed toward lending operations. At the same time, insufficient diversification of the loan portfolio has been identified as one of the key factors limiting the efficiency of resource utilization. Based on the findings, relevant proposals and recommendations for improving the efficiency of the resource base of digital banks have been developed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ raqamli banklar, resurs bazasi, depozitlar, kredit portfeli, bank samaradorligi, diversifikatsiya, moliyaviy barqarorlik.
❖ digital banks, resource base, deposits, loan portfolio, banking efficiency, diversification, financial stability.

Kirish.

So'nggi yillarda jahon moliya tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari bank sektorining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar ma'lumotlariga ko'ra, global miqyosda raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni keskin ortib bormoqda. Jumladan, Statista tahlillariga ko'ra, "2024-yil yakuniga kelib,

dunyoda 3 milliarddan ortiq aholi mobil banking xizmatlaridan foydalanmoqda va bu ko'rsatkich 2027-yilga borib 3,6 milliarddan oshishi prognoz qilinmoqda" [1].

Raqamli banklar faoliyatining kengayishi banklarning resurs bazasini shakllantirish va boshqarish mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Xususan, McKinsey & Company tadqiqotlariga ko'ra, "raqamli

texnologiyalarni joriy etgan banklarda operatsion xarajatlar o'rtacha 20–30 foizgacha kamayib, resurslardan foydalanish samaradorligi 15–25 foizga oshgan" [2]. Bu esa banklar uchun depozitlar va boshqa moliyaviy resurslarni jalb qilishda raqamli platformalarning muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, global moliyaviy inklyuziya darajasi oshib borishi natijasida bank hisob raqamlariga ega bo'lgan aholining ulushi 2011-yildagi 51 foizdan 2023-yilda 76 foizga yetgan" [3]. Bu esa bank resurs bazasining kengayishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, raqamli banklar orqali kichik depozitlar va omonatlarni jalb qilish imkoniyati kengayib, banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligi mustahkamlanmoqda.

Tijorat banklari tomonidan raqamli xizmatlarning joriy etilishi natijasida depozit portfeli va mijozlar bazasi sezilarli darajada kengaymoqda. Masalan, yurtimizda so'nggi besh yil ichida aholi depozitlari hajmi qariyb 2 barobarga oshib, bank resurs bazasining asosiy qismini tashkil etmoqda. Bu esa banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, banklar o'rtasida raqobatning kuchayishi, fintech kompaniyalar faoliyatining kengayishi va raqamli xizmatlar ulushining ortishi resurs bazasini samarali boshqarish va optimallashtirish masalasini dolzarb qilib qo'yimoqda. Raqamli banklar faoliyatida resurs bazasi samaradorligini oshirish omillarini chuqur tahlil qilish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Mavzuning nazariy va uslubiy asoslarini chuqurroq yoritish maqsadida raqamli banklar faoliyatida resurs bazasi samaradorligini oshirish masalasi xorijiy va mahalliy olimlar

tomonidan turli jihatlarida tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar bank resurslarini boshqarish, raqamlashtirish jarayonlari hamda moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.

Xorijiy olimlardan F. Mishkin bank tizimida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish banklarning likvidligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "bank resurs bazasining barqarorligi depozitlar hajmi, kapital yetarliligi hamda risklarni samarali boshqarish bilan chambarchas bog'liq" [4]. P. Rose va S. Hudgins bank menejmenti bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida "bank resurslarini boshqarish samaradorligi bank rentabelligi va raqobatbardoshligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri ekanligini qayd etadi" [5].

Shuningdek, B. King raqamli banklar rivojlanishi moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirib, mijozlar bazasini oshirish orqali banklarning resurs bazasini mustahkamlashini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, "raqamli texnologiyalar banklar uchun arzon resurslarni jalb qilish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar tezkorligini oshirish imkonini yaratadi" [6].

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan zamonaviy ilmiy izlanishlarda ham raqamli transformatsiya banklar samaradorligini oshirishi, depozitlar hajmining ortishi hamda bank resurslaridan foydalanish samaradorligini yaxshilashi ilmiy asoslab berilgan.

Mahalliy olimlardan N. Karimova va Sh. Abdullayevlar "bank resurs bazasini shakllantirishda depozit siyosatining ahamiyati yuqori ekanligini ta'kidlab, tijorat banklari resurs salohiyatini oshirishda mijozlar mablag'larini jalb qilish strategiyasini takomillashtirish zarurligini qayd etadi" [7]. Sh. Xolmo'minov esa "raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini raqamlashtirish bank resurs bazasining kengayishiga va

moliyaviy xizmatlar samaradorligining oshishiga xizmat qilishini ilmiy asoslaydi" [8].

Mahalliy tadqiqotchilar fikriga ko'ra, O'zbekistonda bank tizimini raqamlashtirish, masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish va innovatsion moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bank resurs bazasi barqarorligini ta'minlash hamda uning samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, raqamli banklar faoliyatida resurs bazasi samaradorligini oshirish depozit siyosatini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va risklarni samarali boshqarish bilan bevosita bog'liqdir. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda raqamli banklar faoliyatida resurs bazasi samaradorligini baholash maqsadida tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida "TBC Bank" va "ANOR BANK"ning 2022-2024-yillarga oid moliyaviy hisobotlari asosida majburiyatlar, depozitlar hamda kredit portfeli tarkibi dinamikasi o'rganildi. Statistik ma'lumotlarni iqtisodiy tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullari orqali banklar resurs bazasining shakllanishi hamda jalb

qilingan mablag'larning kredit operatsiyalariga yo'naltirilish darajasi baholandi. Shuningdek, resurs bazasi samaradorligini aniqlashda depozitlar va kredit portfeli o'rtasidagi bog'liqlik hamda resurslarni joylashtirish darajasining diversifikatsiya holati ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli banklar faoliyatida resurs bazasi samaradorligini oshirish omillarini chuqur o'rganish ularning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy bank tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi resurslarni jalb qilish, ularni joylashtirish va boshqarish mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Shu sababli bank resurs bazasi samaradorligini baholashda statistik ma'lumotlar asosida tahlil o'tkazish dolzarb hisoblanadi.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-2024-yillar davomida "TBC Bank" AJning resurs bazasi sezilarli darajada kengaygan. Jami majburiyatlar hajmi 1 481,9 mlrd. so'mdan 7 670,4 mlrd. so'mga yetib, qariyb 5 baravar oshgan. Ushbu o'sishda asosiy ulush mijozlar mablag'lari hissasiga to'g'ri kelib, ular bank resurs bazasining yetakchi manbai sifatida namoyon bo'lmoqda.

1-jadval

"TBC Bank" AJning majburiyatlar va kapital tarkibi [9], (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	31.12.2022-y.	31.12.2023-y.	31.12.2024-y.
Majburiyatlar			
Boshqa banklar mablag'lari	-	100,2	333,3
Mijozlar mablag'lari (depozitlar)	1 389,5	2 674,6	4 980,0
Chiqarilgan qarz majburiyatlari	-	-	1 167,0
Jalb qilingan boshqa qarz mablag'lari	28,0	421,6	1 932,8
Hosila moliyaviy instrumentlar	-	1,1	23,4
Lizing majburiyatlari	33,7	22,9	55,1
Boshqa majburiyatlar	30,8	66,1	178,9
Jami majburiyatlar	1 481,9	3 286,6	7 670,4
Kapital			
Ustav kapitali	771,7	1 290,1	2 120,5
Qo'shimcha kapital	75,8	153,2	277,1
Taqsimlanmagan foyda (zarar)	-225,8	-157,2	98,9
Boshqa zaxiralar	-	0,1	3,8
Jami kapital	621,7	1 285,9	2 500,3

Shuningdek, jalb qilingan boshqa qarz mablag'lari ham keskin ortib, bank resurslarini diversifikatsiya qilish jarayoni kuchayganini ko'rsatadi. 2024-yilda chiqarilgan qarz majburiyatlarining paydo bo'lishi bankning kapital bozorlaridan faol foydalanayotganini anglatadi.

Kapital tarkibi tahlili bank moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Jami kapital hajmi 2022-yildagi

621,7 mlrd. so'mdan 2024-yilda 2 500,3 mlrd. so'mga yetgan. Ustav kapitalining oshishi va 2024-yilda sof foyda shakllanishi bank faoliyati samaradorligi ortib borayotganini ifodalaydi.

Umuman olganda, tahlil natijalari bank resurs bazasi o'sishida depozit mablag'lari va jalb qilingan qarz resurslari asosiy omil bo'layotganini hamda kapital hajmining ortishi bank moliyaviy barqarorligini ta'minlayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

"TBC Bank" AJ mijozlar mablag'lari tarkibi [9], (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Jismoniy shaxslar			
- Muddatli depozitlar	1 182,2	2 343,8	4 016,9
- Joriy hisobvaraqlar	186,4	236,5	508,6
Jami jismoniy shaxslar mablag'lari	1 368,6	2 580,3	4 525,5
Yuridik shaxslar			
- Muddatli depozitlar	20,0	60,9	316,3
- Joriy hisobvaraqlar	0,9	33,4	138,1
Jami yuridik shaxslar mablag'lari	20,9	94,3	454,4
Jami mijozlar mablag'lari	1 389,5	2 674,6	4 980,0

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-2024-yillar davomida "TBC Bank" AJ mijozlar mablag'lari hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etib, 1 389,5 mlrd. so'mdan 4 980,0 mlrd. so'mga yetgan. Mijozlar mablag'lari tarkibida asosiy ulush jismoniy shaxslar depozitlariga to'g'ri kelib, ularning umumiy hajmi 2024-yilda 4 525,5 mlrd. so'mni tashkil etgan hamda bank resurs bazasining yetakchi manbai sifatida shakllangan. Shu bilan

birga, yuridik shaxslar mablag'lari ham sezilarli darajada ortib, ayniqsa 2024-yilda 454,4 mlrd. so'mga yetganligi bankning mijozlar bazasi kengayib borayotganini va depozit siyosati samaradorligi oshayotganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiya raqamli banklar faoliyatida resurs bazasi samaradorligini oshirishda depozit mablag'larini jalb qilish va mijozlar segmentini kengaytirish muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

3-jadval

"TBC Bank" AJ kredit portfeli tarkibi [9], (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Jismoniy shaxslarga kreditlar			
- Iste'mol kreditlari	1 390,6	3 463,9	6 798,4
- Avtokreditlar	2,5	40,9	25,6
- Kredit kartalari	-	-	49,9
- Moliyaviy lizing	-	133,3	825,3
Jami kreditlar (sof)	1 393,2	3 638,1	7 699,2

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-2024-yillar davomida "TBC Bank" AJ kredit portfeli hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etib, 1 393,2 mlrd. so'mdan 7 699,2 mlrd.

so'mga yetgan. Kredit portfeli tarkibida asosiy ulush iste'mol kreditlariga to'g'ri kelib, ularning hajmi 2024-yilda 6 798,4 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu holat bankning chakana

(retail) kreditlash yo'nalishiga ixtisoslashganini hamda jalb qilingan depozit mablag'larining asosan jismoniy shaxslarni kreditlashga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, moliyaviy lizing operatsiyalarining ham sezilarli darajada oshishi kredit portfeli diversifikatsiyasi kuchayganini bildiradi. Umuman olganda, kredit portfelining yuqori o'sish sur'atlari bank resurs bazasidan foydalanish samaradorligi ortib borayotganini hamda jalb qilingan depozit

mablag'larining aktiv operatsiyalarga samarali joylashtirilayotganini tasdiqlaydi.

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-2024-yillar davomida "ANOR BANK" AJ mijozlar mablag'lari hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etib, 3 067,7 mlrd. so'mdan 8 742,5 mlrd. so'mga yetgan. Mijozlar mablag'lari tarkibida asosiy ulush muddatli depozitlarga to'g'ri kelib, ularning hajmi 2024-yilda 7 903,5 mlrd. so'mni tashkil etgan va bank resurs bazasining eng barqaror manbai sifatida shakllangan.

4-jadval

"ANOR BANK" AJ mijozlar mablag'lari tarkibi [10], (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Muddatli depozitlar	2 763,4	3 386,4	7 903,5
Joriy hisobvaraqlar	304,3	301,9	839,0
Jami mijozlar mablag'lari	3 067,7	3 688,3	8 742,5
Banklar mablag'lari	-	249,4	4 500,0

Joriy hisobvaraqlar hajmi ham sezilarli darajada ortib, bankning likvid resurslari kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, banklar mablag'larining keskin oshishi banklararo moliya bozoridan jalb etilgan resurslar ulushi ortayotganini bildiradi. Umuman olganda, mijozlar depozitlari

hajmining yuqori o'sish sur'atlari bank resurs bazasi barqarorligini mustahkamlash bilan birga, kreditlash operatsiyalarini kengaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun muhim moliyaviy asos yaratmoqda.

5-jadval

"ANOR BANK" AJ kredit portfeli tarkibi [10], (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Mijozlar toifalari bo'yicha kreditlar			
Jismoniy shaxslar	2 028,7	2 755,8	6 209,3
Yuridik shaxslar (xususiy kompaniyalar)	152,1	489,9	832,9
Jami kreditlar	2 180,8	3 245,7	7 042,1

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-2024-yillar davomida "ANOR BANK" AJ kredit portfeli hajmi izchil o'sish tendensiyasini namoyon etib, 2 180,8 mlrd. so'mdan 7 042,1 mlrd. so'mga yetgan. Kredit portfeli tarkibida asosiy ulush jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarga to'g'ri kelib, ularning hajmi 2024-yilda 6 209,3 mlrd. so'mni tashkil etgan va bankning chakana kreditlashga ixtisoslashganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar ham

sezilarli darajada oshib, 2022-yildagi 152,1 mlrd. so'mdan 2024-yilda 832,9 mlrd. so'mga yetgan. Bu holat bank kredit portfeli diversifikatsiyasi kuchayib borayotganini va resurs bazasidan foydalanish samaradorligi oshayotganini anglatadi. Umuman olganda, kredit portfelining yuqori o'sish sur'atlari bank tomonidan jalb qilingan depozit mablag'larining iqtisodiyot subyektlarini moliyalashtirishga faol yo'naltirilayotganini

hamda bank aktiv operatsiyalari kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar natijasida raqamli banklar faoliyatida resurs bazasini shakllantirish va undan foydalanish samaradorligi bo'yicha bir qator muhim xulosalarga kelish mumkin. Jumladan, tahlil qilingan "TBC Bank" va "ANOR BANK" faoliyatida resurs bazasining asosiy qismi mijozlar depozitlari hisobiga shakllanayotgan bo'lib, ayniqsa muddatli depozitlar ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa bank resurs bazasining nisbatan barqarorligini ta'minlayotgan bo'lsa-da, resurslarni joylashtirish yo'nalishlari yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligini ko'rsatadi.

Xususan, har ikkala bank kredit portfelida jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar ulushi ustunlik qilmoqda. "TBC Bank"da kreditlarning deyarli to'liq qismi chakana kreditlashga yo'naltirilgan bo'lsa, "ANOR BANK"da ham kredit portfelining asosiy qismi jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi. Yuridik shaxslar va real sektor tarmoqlariga ajratilgan kreditlar ulushi nisbatan past darajada qolmoqda. Bu holat bank resurslarini joylashtirishda diversifikatsiya yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganini hamda kredit portfeli tarkibi bir yoqlama shakllanayotganini anglatadi.

Shuningdek, jalb qilingan depozit mablag'larining asosiy qismi iste'mol kreditlariga yo'naltirilayotgani banklarning qisqa muddatli daromadlilikini oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatli barqarorlik va iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish nuqtayi nazaridan risk darajasini oshiradi. Kredit portfelining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi bank resurs bazasi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki resurslar turli tarmoqlar va mijoz segmentlari bo'yicha muvozanatli taqsimlanmagan.

Umuman olganda, tahlil natijalari raqamli banklar faoliyatida resurs bazasi hajmi va depozitlar ulushi yuqori sur'atlarda oshib

borayotganini ko'rsatsa-da, ushbu resurslarni joylashtirishda diversifikatsiya darajasi yetarli emasligini ko'rsatadi. Kelgusida banklar resurs bazasi samaradorligini oshirish uchun kredit portfelini tarmoqlar va mijoz segmentlari kesimida diversifikatsiya qilish, yuridik shaxslarni moliyalashtirish ulushini oshirish hamda uzoq muddatli investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot doirasida raqamli banklar faoliyatida resurs bazasi samaradorligini oshirish masalalari "TBC Bank" va "ANOR BANK" misolida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida so'nggi yillarda mazkur banklarda resurs bazasi hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgani, ayniqsa mijozlar depozitlari bank resurslarining asosiy manbai sifatida shakllanib borayotgani aniqlandi. Depozit mablag'lari, xususan muddatli depozitlar ulushining yuqori bo'lishi banklar resurs bazasi barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, jalb qilingan resurslarning asosiy qismi kreditlash operatsiyalariga, asosan jismoniy shaxslarni moliyalashtirishga yo'naltirilayotgani kuzatildi. Bu holat banklar daromadlilikini oshirish va aktiv operatsiyalar hajmini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa-da, kredit portfeli tarkibining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligini ko'rsatadi. Xususan, yuridik shaxslar va real sektor tarmoqlariga ajratilgan kreditlar ulushi nisbatan past bo'lib qolmoqda.

Tahlillar natijasida raqamli banklar faoliyatida resurs bazasi samaradorligi ko'p jihatdan depozitlar hajmining o'sishi va ularning kredit operatsiyalariga samarali joylashtirilishiga bog'liqligi aniqlandi. Biroq resurslarni joylashtirishda tarmoqlar va mijoz segmentlari bo'yicha diversifikatsiya darajasining pastligi uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ma'lum risklarni

yuzaga keltirishi mumkin.

Shu bois raqamli banklar resurs bazasi samaradorligini oshirish uchun kredit portfelini diversifikatsiya qilish, yuridik shaxslar va real sektorni moliyalashtirish ulushini kengaytirish, shuningdek, uzoq muddatli investitsion kreditlashni

rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar banklar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jahonda raqamli banking foydalanuvchilari statistikasi <https://www.statista.com>
2. McKinsey & Company. Global Banking Annual Review 2024. <https://www.mckinsey.com>
3. Jahon banki. Global Findex ma'lumotlar bazasi 2023: <https://www.worldbank.org>
4. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – 12-nashr. – London: Pearson Education, 2022. – 680 b.
5. Rose P.S., Hudgins S.C. *Bank Management and Financial Services*. – New York: McGraw-Hill Education, 2021. – 720 b.
6. King B. *Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank*. – Singapore: Marshall Cavendish, 2019. – 350 b.
7. Karimov N.G., Abdullayeva Sh.Z. *Bank ishi: darslik*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 356 bet.
8. Xolmo'minov Sh.R. *Raqamli iqtisodiyot va moliya bozori*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 280 bet.
9. <https://tbcbank.uz/uz/documents/shareholder/> - "TBC Bank" AJning ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
10. <https://anorbank.uz/uz/about/investors/audit-report/> - "Anor Bank" AJning ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.